

AFG‘ONISTON HUDUDIDAGI O‘ZBEK VA TOJIKLARNING MODDIY MADANIYATI TASNIFI VA MAHALLIY XUSUSIYATLARI: AN‘ANAVIY KIYIMLAR, UY-JOYLAR

Xo‘jamurodov Nodirbek Sultonmurodovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0009-0003-9902-333X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg‘oniston hududida yashovchi o‘zbek va tojik xalqlarining moddiy madaniyati, xususan, an‘anaviy kiyim-kechak va uy-joy qurilishi tizimi tarixiy-etnografik hamda dala tadqiqotlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida milliy liboslarning shakllanishi, tikilish uslubi, rang-barangligi va bezaklaridagi mahalliy xususiyatlar yoritilib, ularning iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va madaniy an‘analar bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, o‘zbek va tojiklarning an‘anaviy turar joylari, qurilish materiallari, uylarning tuzilishi, ichki rejalashtirilishi va xo‘jalik inshootlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada moddiy madaniyat unsurlarining etnik o‘zlikni saqlashdagi o‘rni va ularning tarixiy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston o‘zbeklari, Afg‘oniston tojiklari, moddiy madaniyat, an‘anaviy kiyim-kechak, milliy liboslar, uy-joy qurilishi, etnografiya, mahalliy xususiyatlar, dala tadqiqotlari.

Abstract: This article analyzes the material culture of Uzbeks and Tajiks living in Afghanistan, focusing particularly on traditional clothing and housing systems, based on historical-ethnographic and field research. The study examines the formation of national costumes, their construction methods, color schemes, and local decorative features, revealing their connection with climate, socio-economic conditions, and cultural traditions. Additionally, the traditional residences of Uzbeks and Tajiks, construction materials, house structures, interior layouts, and utility buildings are comparatively analyzed. The article highlights the role of material culture in preserving ethnic identity and substantiates its historical significance.

Keywords: Afghan Uzbeks, Afghan Tajiks, material culture, traditional clothing, national

costumes, housing construction, ethnography, local features, field research.

Аннотация: В данной статье анализируется материальная культура узбеков и таджиков, проживающих на территории Афганистана, с особым вниманием к традиционной одежде и системе жилищного строительства, на основе историко-этнографических и полевых исследований. В работе рассматривается формирование национальной одежды, методы её пошива, цветовая гамма и местные декоративные особенности, выявляется связь с климатом, социально-экономическими условиями и культурными традициями. Кроме того, проводится сравнительный анализ традиционных жилищ узбеков и таджиков, строительных материалов, структуры домов, внутреннего планирования и хозяйственных построек. В статье подчеркивается роль материальной культуры в сохранении этнической идентичности и обосновывается её историческая значимость.

Ключевые слова: афганские узбеки, афганские таджики, материальная культура, традиционная одежда, национальные костюмы, строительство жилья, этнография, местные особенности, полевые исследования.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Moddiy madaniyat har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim etnomadaniy omillardan biridir. An‘anaviy kiyim-kechak va uy-joy qurilishi esa moddiy madaniyatning eng muhim tarkibiy qismlari bo‘lib, ular xalqning tabiatga moslashuvi, xo‘jalik faoliyati, estetik qarashlari

hamda ma'naviy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Shu jihatdan Afg'oniston hududida yashovchi o'zbek va tojik xalqlarining moddiy madaniyatini o'rganish nafaqat etnografiya fanida, balki mintaqaning tarixiy-madaniy jarayonlarini tadqiq etishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbeklarni kiyim-kechaklari qadimiy bo'lib, deyarli hududga moslashib, o'zining bir xilligini saqlab kelgan. Afg'onistonda yashovchi o'zbeklarning kiyim-kechaklari – bu ularning madaniyati, tarixiy merosi va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq. Ular asosan shimoliy Afg'onistonda (Balx, Qunduz, Juzjon, Faryob, Samangon viloyatlari) yashaydi va o'zining an'anaviy kiyimlari bilan boshqa etnik guruhlardan ajralib turadi.

Erkaklar kiyimlarining eng ko'p tarqalgan turi chopon (chopan) bo'lib, yozda yengilroq matodan, qishda qalin matodan tikiladi. Oddiy kunlarda ham, bayram yoki to'ylarda ham kiyiladi. Oddiylarida rangdor ipak yoki paxtadan foydalaniladi, tantanali variantlarida zardo'zlik (tillali bezaklar) bo'lishi mumkin.

O'zbek erkaklarining ichki kiyimlariga keng shim (poychambar yoki shalvor), tunuk paxta yoki ipakdan tikilib, yuqori qismi – keng ko'ylak (ko'raklari bo'sh, bo'yin qismi bir necha tugmali). Shuningdek, Ellik (sariq), uzun mato bo'lagi boshga o'ralib, turli usullarda turmaklanadi. Ba'zi o'zbeklar do'ppi (to'rtburchak milliy kallak) ham kiyishadi. Etiklar qo'lda tikilib, asosan qishda qoshqo'n (qo'y terisidan) etiklar, yozda yengil oyoq kiyimlarga bo'linadi[1].

O'zbek ayollarning kiyimlari ham oddiy bo'lib, tikilish usuli deyarli o'z uslubini yo'qotmagan bo'lib, ayollar ko'ylak va shalvorlarni uzun holda tayyorlab kiyishgan. Uzun va keng, rangi juda yorqin. Qo'llari keng, ba'zan qo'ltiq qismidan tor tikiladi. Shalvorlar ham keng, matosida gulli yoki ipakdan tikilgan bo'lishi mumkin. O'zbek ayollarini ro'mol (yoki oropa)lari, boshini yopish uchun ishlatiladi. Yoshlarga qarab uslubi va rangi farq qiladi. Turmushga chiqqan ayollar ko'proq yuzini ham qisman yopadi.

O'zbek ayollarini ziynatlari alohida usulda tayyorlanib, o'zining oddiyligi hamad jozibadorligi bilan ajralib turadi. Ko'pgina o'zbek ayollari an'anaviy ko'plab tovush chiqaradigan taqinchoqlar, tilla yoki kumushdan yasalgan sirg'a, gardanband, bilang, tumor taqadi. Ko'p hollarda ziynatlar urushdan oldingi davrlardan saqlangan bo'ladi.

O'zbek ayollarini qalpoq va bosh kiyimlari ham alohida ajralib turadi, ya'ni, qishda qalin bosh kiyimlar, ba'zan qo'y terisining junli tomoni tashqarisida qoldirilgan qalpoqlar kiyiladi[2].

O'zbeklarning kiyimlarini o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berilsa, birinchidan tabiiy obi havo sharoitiga moslashganligi, ikkinchidan shaharlar va qishloqlar dagi o'zbek aholisini asosiy qismi qashshoq hamda kambag'al turmush kechirganligi, uchinchidan kiyimlarni tayyorlash uchun moddiy xom ashyolarni yetishmasligi, to'rtinchidan, kiyimlarni mahalliyashtirish hamda zamonaviylashtirishga e'tiborni kam qaratganligi. Beshinchidan kiyimlarni kichik va yirik sanoatlashtirish asosida tashkil etishga iqtisodiy imkoniyatlarni yetishmasligi hamda ma'naviy salohiyatni shakllanishga turli dinlar o'rtasidagi tafovutlar, qarma-qarshiliklarni mavjudligi, oltinchidan muntazam bo'lib turadigan, urug'lar, qabilalar, siyosiy kuchlar o'rtasidagi to'qnashuvlar kabi omillar salbiy ta'sir ko'rsatganligini qayd etib o'tish zarur[3].

Shuningdek, tadqiqot davomida quyidagi holatlar etnografik dala sharoitidagi o'rganishlar davomida aniqlanib, quyidagi xulosalarga kelindi. Afg'oniston o'zbeklarining kiyimlari turkiy an'analarni saqlab qolgan. Ular qoraqalpoq, Tojikiston va O'zbekiston o'zbeklarining kiyimlariga o'xshash. Har bir tumanning, hatto har bir qishloqning o'z uslubi bor — gullari, ranglari va tikuv uslubi farq qiladi. Ayniqsa to'y va bayramlarda ayollar milliy liboslarini to'liq bezaklari bilan kiyishadi. Quyida Afg'onistonda yashovchi o'zbek, tojik va turkman xalqlarining an'anaviy kiyim-kechaklari taqqoslamasi (taqqosi) jadval ko'rinishida keltirilgan. Ushbu jadval ularning liboslaridagi asosiy umumiyliklar va farqlarini ko'rsatadi[4]:

Erkaklar liboslari taqqosi

Element	O'zbeklar	Tojiklar	Turkmanlar
Ko'ylak	Keng, oq yoki to'q rang, tugmali	Oddiy, keng, oq yoki to'q rang	Oddiy, keng, oq yoki qora tuskula
Shalvor	Keng, paxtadan	Keng, yengil matodan	Keng, tugmasiz, ozgina uzunroq
Ust kiyim (chopon/xalat)	Bezakli chopon, ba'zan zardo'zlik	Uzun beshmet yoki chopon	Qalin, ipak yoki barqadan tikilgan xalat
Bosh kiyim	Do'ppi, sarik	Sarik yoki kallak	Katta telpak (qo'y junidan)
Etish	Qishda – teridan, yozda – yengil	Oddiy teridan	Qo'lda tikilgan, ba'zan bezakli etik[5].

Ayollar liboslari taqqosi

Element	O'zbeklar	Tojiklar	Turkmanlar
Ko'ylak	Uzun, gulli, ko'p holda ipakdan	Uzun, oddiy bezakli	Qizil, ipak yoki barqadan, bezakli
Shalvor	Ko'ylak ostida, keng, rangi moslashtirilgan	Oddiy, keng, ko'ylakka mos	Bezakli yetak qismi bilan tikiladi
Bosh kiyim	Ro'mol, ba'zan oropa, yuzni qisman yopadi	Ro'mol, chodar (ayniqsa qishloqlarda)	Parchi va unga o'ralgan ro'mol, ba'zan yuzni yopadi
Ziynatlar	Sirg'a, gardanband, tumor	Sirg'a, tumor, bilang	Keng miqdorda kumush ziynatlar: katta gardanband, tumorlar, metall sirg'alar
Tantanali libos	Ipak yoki barqadan, zardo'zlikli	To'q rangda, ko'p holda ipakdan	Qizil, zardo'zlik, metal bezaklar bilan[6].

Umumiyliklar va farqlar

Qiyosiy jihat	O'xshashliklar	Farqlar
Madaniy asos	Islom an'analarga va milliy urf-odatlariga tayangan	Turkmanlar bezak va ziynatda keskin ajralib turadi
Materiallar	Ipak, paxta, barqa	Turkmanlarda ipak va zardo'zlik ko'proq uchraydi
Ranglar	Bayramda – yorqin, kundalikda – to'q	Turkmanlar qizil va metall rangli bezaklarga ko'proq ahamiyat beradi
Ziynatlash	Hammasida mavjud, ammo darajasi turlicha	Turkmanlarda ziynatlar katta va ko'p miqdorda
Bosh kiyimlar	Barchada ro'mol yoki sarik mavjud	Turkman erkaklarining telpaki — ajralib turuvchi belgidir

Afg'oniston o'zbeklarni uy-joy qurilishi | adabiyotlardagi ma'lumotlar dala sharoitdagi tadqiqot jarayonida o'rganildi, mavjud | tadqiqotlar hamda mahalliy aholini ushbu

sohani biladigan kekxa kasb egalari bilan o'tkazilgan suhbat jarayonlaridagi ma'lumotlar taqqoslanib o'tildi.

Afg'onistonda yashovchi o'zbeklarning uy-joy qurilishi — ularning geografik sharoiti, tarixiy an'analari va madaniy urf-odatlarini aks ettiradi. Bu uylar odatda tabiiy materiallardan, iqlim va hayot tarziga mos ravishda barpo etiladi.

Afg'oniston o'zbeklarining an'anaviy uy-joy qurilishi qadimiy tarix bilan bog'liq bo'lib, uy-joylarni paydo bo'lishi va takomillashuv jarayonlari tarixiy-etnografik jarayonlar bilan taqqoslab berildi hamda ilmiy qamrovga olindi hamda ilmiy tahlil qilindi. Uy-joylar uchun foydalanadigan qurilish materiallari alohida o'rganib chiqilib, xom g'isht (qora g'isht) eng keng tarqalgan material bo'lib, yer, suv va somon aralashtirilib, quyoshda quritiladi. Loy va gili: Devorlarni suvashda ishlatiladi. Arzon, tabiiy va izolyatsiya xususiyatlariga ega. Yog'och: Tom konstruksiyasi, eshik va oynalar uchun. Ba'zan ustunlar va ramkalarda ham ishlatiladi. Tosh (kamen) kamroq hollarda — poydevorda va suvsiz joylarda qurilish uchun ishlatilgan[7].

O'zbek uylarning shakli va tuzilishi masalasida olib borilgan tadqiqotlari jarayonida uylarni turi, tuzilishi, tayyorlash bilan bog'liq ahvol ilmiy tadqiqot davomida mukammal o'rganildi. Yagona qavatli uylar turiga Afg'oniston o'zbeklari yashaydigan joylarida ko'pincha bir qavatli uylar uchraydi. Uyning ichidagi xonalar katta va havodor bo'ladi. Katta ayvon (yovon) va ichki hovli (xon) asosiy qismi hisoblanadi.

Ichki hovli (xonaqoh)larni tuzilishi ham o'ziga xos holda bo'lib, har bir uyda ichki hovli bo'ladi, bu yerda oilaviy tadbirlar, oshpazlik ishlari yoki mehmonlarni qabul qilish amalga oshiriladi. Hovli atrofida xonalar joylashib, har bir bir-birdan ajaralgan holda bo'ladi.

Chodirsimon yoki ko'chma uylar bo'yicha o'tkazilgan dala tadqiqotlar hamda mavjud tarixiy-etnografik manbalarga asoslanib qayd etish kerak, qishloqlarda ba'zi hollarda ko'chmanchi o'zbeklar hali ham gilam bilan qoplangan chodirsimon uylardan foydalanishadi (ayniqsa, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchilar).

O'zbeklarning tom va saqlash tizimi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda shuni alohida ta'kidlash kerak, rov tomalar asosan turiga Afg'oniston o'zbeklari uylarining ko'pchiligida tekis, loy bilan suvagan tomalar uchraydi. Bu tomalar yozda sovuq saqlaydi, qishda issiqlikni ushlab turadi. Suv oqish tizimi bo'yicha qadimgi an'alarga tayanib, tepa tomonlarida suv oqish uchun maxsus teshiklar va kanallar (shish) tayyorlanadi.

O'zbek uylari bo'yicha tahlil qilingan tadqiqotlar yo'nalishiga ichki jihoz va bezaklar bo'yicha muhim dala tadqiqotlari o'tkazilib, o'zlarni keng tarqalgan ichki bezaklarini asosni gilamlar tashkil etadi: Har bir xonada ko'plab gilamlar yozilgan bo'ladi. Gilam nafaqat bezak, balki yotoq va o'tirish joyi sifatida ham xizmat qiladi. Shuningdek, ichki bezaklarga to'shak va ko'rpalar ham alohida o'rin egallab, mehmon uchun alohida to'shaklar saqlanadi.

O'zbek uy-joy tizimga kiradigan yana bir narsa sufalar bo'lib, asosan sufa (ovqatlanish joyi) sifatida kengroq qo'llanilib, yerda ovqatlaniladi, sufa yoki dasturxon yoziladi[8].

Mehmonxona (mehmon uyi) borasida o'tkazilgan tarixiy asarlar va dala tadqiqotlari jarayonida muhim etnografik ma'lumotlar to'plandi hamda o'rganilib, ularni turlari hamda jihozlanishi borasida ma'lumotlar tahlil qilindi. Jumladan, ko'p uylarda mehmonlar uchun alohida xona bo'ladi. Mehmonxona — o'sha oilaning nufuzi va hurmati ko'riladigan joy.

O'zbek uy-joy turlariga mansab bo'lgan atrof-muhit va qo'shimcha inshootlar borasida olib borilgan tadqiqotlar borasida oshxona ham kirib, oshxonalar aksar hollarda alohida binoda joylashadi. Ogohxona (hojatxona) va hovuz qurilishi va tuzilishi jihatidan ular ko'pincha uydin tashqarida joylashadi. Qishloqlarda tuxum qo'yiladigan saray, quruq o'tin saqlash uchun ombor va og'illar bo'ladi[9].

Afg'onistonda yashovchi tojiklarning uy-joy qurilishi. Uylarning turlari. Afg'onistonda yashovchi tojiklarning uy-joy qurilishi va uy turlari ularning tarixiy an'analari, iqlim sharoiti va iqtisodiy holatiga bog'liq ravishda shakllangan. Bu uylar odatda tabiiy materiallardan — xom g'isht, loy, cho'p va toshlardan quriladi. Afg'oniston tojiklarining uylari oddiy, lekin amaliyotga mos, tabiatga

yaqin va zamonaviy ehtiyojlarga javob beruvchi tarzda quriladi.

Afg'oniston tojiklarining uy turlari asosan xom g'ishtdan qurilgan uylar (loy g'ishtli uylar)dan iborat bo'lib eng keng tarqalgan uy turi bu devorlar xom (pishmagan) g'ishtdan va loy bilan suvalgan holda quriladi. Bunday uylar yozda salqin, qishda issiq turadi hamda tomlari tekis bo'lib, cho'p, qog'oz, loy va quruq giyohlar bilan yopiladi. Tom ustida pishirish yoki quyoshda mevalar quritish ishlari amalga oshiriladi[10].

Tepa-tomli, yonida hovlisi bo'lgan uylar ko'pincha bir xonadonda bir necha avlod yashab, har bir xonadonda ichki hovli (hovlicha) bo'lib, atrofida uy xonalari joylashgan. Hovlida daraxtlar, quduq, oshxona va ba'zida chorvaxona bo'ladi. Oilaviy mehmondorchilik va bayramlar shu hovlida o'tadi.

Tog'lik hududlardagi tosh uylar asosan ko'proq Badaxshon, Panjsher kabi tog'li viloyatlarda yashovchi tojiklar tosh va cho'pdan qurilgan uylarda yashaydi. Devorlari

qalin toshdan, ustiga daraxt yog'ochlari yotqizilib, loy bilan suvaladi. Bunday uylar sovuqni yaxshi ushlab turadi va yer silkinishlariga nisbatan chidamliroq hisoblanadi.

Chodirsimon vaqtinchalik uylar (ko'chmanchi tojiklar uchun) kam uchraydi, lekin ba'zi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi tojiklar yoz oylarida tog'larga chiqqanda vaqtinchalik chodirsimon uylarda yashaydi. Bu uylar yong'in va shamolga chidamli qilib tikiladi, odatda palas, qorachoy yoki kigizlar bilan yopiladi[11].

Pishiq g'ishtli va zamonaviy uylar (shaharlarda) asosan tadqiqotlar jarayonida aniqlandi, jumladan Kobul, Mozori Sharif, Hirot kabi yirik shaharlarda istiqomat qiluvchi tojiklar mustahkam, beton va pishiq g'ishtdan qurilgan uylarda yashaydi. Qavatli uylar ham uchraydi, lekin ko'pincha yakkaxon xususiy uylar ustunlik qiladi. Bu uylarda alohida mehmonxona, oshxona, yuvinish xonasi va zamonaviy qulayliklar bo'ladi[12].

Uy qurilishida ishlatiladigan asosiy materiallar

Material	Manba	Xususiyati
Xom g'isht	Loy va po'stloq	Arzon va issiqlikni ushlaydi
Tosh	Tog'dan	Mustahkam va uzoq muddatli
Cho'p va daraxt yog'ochi	Mahalliy daraxtlar	Tom va devorlar uchun
Loy va po'st	Uy suvalishi uchun	Devorlarni izolyatsiya qiladi
Saman (quruq po'stloq)	Bug'doy yoki arpa qoldig'i	Loy bilan aralashtiriladi[13]

O'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, uy devorlari odatda oq loy bilan bo'yaladi (estetik va sovuqdan himoya qilish uchun). Xonalar yerda joylashgan paloslar, qolin gilamlar va ko'rpalar bilan jihozlanadi. Isitish uchun ko'mir yoki o'tin bilan yonadigan pechlar ishlatiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Afg'onistonda yashovchi o'zbek va tojiklarning moddiy madaniyati, xususan kiyim-kechak va uy-joy qurilishi, ularning iqlim sharoiti, iqtisodiy imkoniyatlari va tarixiy an'analari bilan chambarchas bog'liq.

O'zbeklar va tojiklar kiyimlarida turkiy va mahalliy urf-odatlar uyg'unlashgan bo'lib, har bir hudud va hatto har bir qishloqning o'ziga xos dizayni va rang tanlovi mavjud. Ayollarning liboslari tantanali va bayramlarda maxsus bezaklar bilan ajralib turadi, erkaklar kiyimlarida esa qulaylik va amaliy jihatlar ustun.

Uy-joy qurilishida esa tabiiy materiallar (xom g'isht, loy, cho'p, tosh) keng qo'llanilgan, bu uylarni iqlimga mos va qulay qiladi. Uylarning ichki tartibi, hovli va mehmonxona kabi joylar oilaviy hayot va mehmondo'stlik an'analari aks ettiradi. Shu bilan birga, uylar

mahalliy etnik va ijtimoiy xususiyatlarni | saqlagan holda shakllangan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Dala yozuvlari, Qunduz viloyati Qunduz shahri, 2021-yil.
2. Dala yozuvlari, Balx viloyati, Mozori Sarif shahri, 8-sonli mahalla, 18-ko‘cha, 2022-yil.
3. Dala yozuvlari, Saripul viloyati, Saripul tumani, Guzarishohon qishlog‘i, 2021-yil.
4. **Алишер Ҳожибоев.** *Афғонистон ўзбекларининг миллий анъаналари.* 2015.
5. Dala yozuvlari, Saripul viloyati, Saripul tumani, Guzarishohon qishlog‘i, 2021-yil.
6. Dala yozuvlari, Saripul viloyati, Saripul shahri, Behsud mahallasi, 2021-yil.
7. Dala yozuvlari, Badaxshon viloyati, Daroyim tumani, Bog‘isufiy qishlog‘i, 2023-yil.
8. **Алишер Ҳожибоев.** *Афғонистон ўзбекларининг миллий анъаналари.* 2015.
9. Dala yozuvlari, Juzjon viloyati, Juzjon shahri Qariya qishlog‘i, 2022-yil.
10. Dala yozuvlari, Badaxshon viloyati, Daroim tumani, Hojipahlavon qishlog‘i, 2023-yil.
11. Dala yozuvlari, Balx viloyati, Mozori Sharif shahri 4-sonli Korti Zahiriddin Faryobiy mahallasi, 2022-yil.
12. Dala yozuvlari, Juzjon viloyati, Oqcha tumani Qariya Ko‘kinbaz qishlog‘i, 2022-yil.
13. Dala yozuvlari, Juzjon viloyati, Oqcha tumani Qariya Ko‘kinbaz qishlog‘i, 2022-yil.